

**TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI FAOLIYATI TO'G'RISIDA  
MA'LUMOT  
(2022 yil yanvar-mart)**

**STANDARTLASHTIRISH SOHASIDA**

Xalqaro talablar bilan uyg'unlashgan 7 763 ta standartlar qabul qilinib, 7 968 tasi qayta ko'rib chiqildi. Natijada standartlar soni 19 543 taga yetkazildi (80,4 %).

*Ma'lumot uchun: qurilish sohasida (2 264 ta), metallurgiya (833 ta), to'qimachilik va charm (638 ta), axborot texnologiyalari vatelekommunikatsiya (1 124 ta), neft va gaz (1 354 ta), elektrotexnika (1 467 ta), kimyo texnologiyalari (1 254 ta), oziq-ovqat sanoati (1 643 ta) va boshqa sohalarda (6 852 ta) standart xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirilgan.*

**TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH SOHASIDA**

Jami texnik reglamentlar soni 54 tani tashkil etadi (38 ta umumiy, 16 ta maxsus). Joriy yil yakuniga qadar YeOII da qabul qilingan hamda O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lmagan 26 ta texnik reglamentni qabul qilishni nazarda tutuvchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihalarini hamda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan 11 ta texnik reglamentni EOII da o'xshash texnik reglamentlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha tarmoq jadvali ishlab chiqilgan.

YeOII da qabul qilingan hamda O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lmagan 26 ta texnik reglamentlari O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi Bosh direktori qarorlari bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan 11 ta texnik reglament loyihalari Adliya vazirligiga kiritilib, shundan 8 tasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan. 3 ta loyiha Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertiza natijalari bo'yicha ijobiy xulosasi olingandan so'ng Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi belgilandi.

**STANDARTLAR VA O'LCHOVLAR YAGONA BIRLIKDA  
BO'LISHINITA'MINLASH BO'YICHA DAVLAT NAZORATI SOHASIDA**

Shuningdek, joriy yilning yanvar-mart holatiga 3 681 ta korxonada profilaktika tadbirlari o'tkazilgan. Natijada, 752 ta korxonada 1 260 ta me'yoriy hujjat bilan ta'minlangan. 463 ta korxonaning 4 800 ta o'lchash vositalari davlat qiyoslash ko'rigidan o'tkazilishida hamda 266 ta korxonaga sertifikatlashtirish yuzasidan amaliy yordam ko'rsatilgan.

Profilaktika tadbirlari davomida o'rganilgan korxonalarining rahbarlari va mutaxassislari sohaga oid barcha qonun va qarorlar bilan tanishtirilgan.

## **O'LCHASHLAR YAGONALIGINI TA'MINLASH SOHASIDA**

Joriy yil yanvar-mart holatiga 133 336 dona o'lchash vositalari (shulardan 1 084 dona o'lchash vositasi yaroqsiz deb topilgan) metrologik tekshiruvdan o'tkazilgan.

Ko'rsatilgan metrologik xizmatlardan 117 502 dona qiyoslash, 11 406 dona attestatsiya va 3 344 dona kalibrlash ishlarini tashkil etadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning 29 742 ta murojaatlariga asosan elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va issiq suvni hisobga olish uskunalarini (hisoblagichlarni) qiyoslash ishlari amalga oshirilgan.

O'lchash vositalarining metrologik tekshiruvi natijalari va tasdiqlangan turini tan olish bo'yicha 17 dona sertifikatlar rasmiylashtirilgan.

Shuningdek, turini tasdiqlash maqsadida 9 turdagi o'lchash vositalari davlat sinovlaridan o'tkazilgan.

## **MUVOFIQLIKNI BAHOLASH SOHASIDA**

O'zbekiston Respublikasining Milliy sertifikatlashtirish tizimida yanvar-mart oylarida 34 747 ta muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilgan, shundan 416 ta muvofiqlik sertifikati 1 kalendar yiliga shartnoma asosida rasmiylashtirilgan, seriyali ishlab chiqarishga 1 703 ta muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilgan.

## **MENEJMENT TIZIMLARINI JORIY ETISH SOHASIDA**

Joriy yil yanvar-mart holatiga 260 ta korxonada sifat menejment tizimlari bo'yicha sertifikatlar rasmiylashtirilgan, shundan:

78 ta korxonada sifat menejment tizimlari (ISO 9001);

59 ta korxonada ekologik menejment tizimlari bo'yicha (ISO 14001);

19 ta korxonada oziq-ovqat havfsizligi menejment tizimlari (ISO 22000);

1 ta korxonada energetik menejment tizimlari (ISO 50001);

57 ta korxonada kasb-hunar, sog'liqni saqlash va xavfsizlik menejment (ISO 45001) va boshqa 42 ta menejment tizimlari.

Sifat menejment tizimlari bo'yicha sertifikatlashtirish 16 ta akkreditlangan organlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi 6 ta korxonada "OEKO-TEX" xalqaro standart talablari asosida mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

## **XALQARO HAMKORLIK SOHASIDA**

Xalqaro Elektrotexnika Komissiyasining (IEC) joriy yil 29 martdagi tegishli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi IEC xalqaro tashkilotiga 2023 yilning 1 yanvaridan boshlab assotsiyalashgan a'zo sifatida qabul qilingan.

Sohada davlat va xususiy sektorda faoliyat ko'rsatayotgan 189 ta mutaxassis bilim va malakasi oshirilgan.

Jumladan, "Milliy sifat infratuzilmasidagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash" grant loyihasi doirasida ISO 37001:2016 standarti bo'yicha 108 ta;

Yevropa Komissiyasining Texnik yordam va axborot almashuvi (TAIEX) vositasi grant loyihasi doirasida 68 ta;

Xalqaro Elektrotexnika Komissiyasi (IEC)ning "The Affiliate Country Programme" grant loyihasi doirasida 10 ta;

Islom mamlakatlari standartlari va metrologiya instituti (SMIIC) grant loyihasi doirasida 3 ta.

Tadbirlarga xorijiy ekspertlar Manfred Kayndler (Germaniya), Morin Logge (Belgiya), Speranta Stomff va Andrey Yorga (Ruminiya), Daniela Milanova Gorcheva (Bolgariya) jalb etilgan.

O'zbekistondagi Amerika savdo palatasi hamkorligi va Mars Wrigley, Nestle, Coca Cola kompaniyalari, Ukraina Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi, Ukraina Respublikasi Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish davlat xizmati, "Ukrkondprom" uyushmasi vakillari ishtirokida onlayn uchrashuv tashkil etilgan.

Xalqaro hamkorlik doirasida AQShning ASTM International tashkilotidan neft-gaz sohasiga oid 19 ta, Yevropa Standartlashtirish Tashkiloti (CEN-CENELEC) qurilish va elektrotexnikaga oid 200 ta standart olingan.

Malayziyaning Halol Taraqqiyot Korporatsiyasi, Xitoy Avtomobil texnologiyasi va tadqiqot markazi (CATARC) hamkorligida joriy yilning mart oyida seminar (workshop) tashkil etishga kelishilgan.

Turk Standartlari Instituti (TSE), Qozog'iston texnik jixatdan tartibga solish va metrologiya qo'mitasi, Germaniya iqtisodiyotining Sharqiy qo'mitasi va germaniyalik ishbiarmonlar bilan soxani rivojlanishiga oid uchrashuvlar o'tkazilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo Kengashining (Kengash) navbatdagi 60-yig'ilishida ilk bor O'zbekistonning "Indorama Kokand Textile" va "AGROMIR" korxonalari mahsulot va xizmatlar sifati sohasida erishilgan yutuqlari uchun MDH Mukofoti laureatlari deb e'lon qilindi.

## **MAHSULOTLARNI EKSPORT QILISHGA KO'MAKLASHISH SOHASIDA**

Hisobot davrida "Mahsulotlarni eksport qilishga ko'maklashish byurosi" tomonidan korxonalarga 620 ta, shundan standartlashtirish – 223 ta, metrologiya – 22 ta, sertifikatlashtirish – 96 ta, qadoqlash va yorliqlash – 40 ta, sifat menejment tizimlari masalalari – 128 ta va boshqa masalalarda –111 ta konsultativ xizmatlar ko'rsatilgan.

46 marotaba seminar-treninglar, 17 ta televideniya chiqishlar, gazeta va jurnallarda 10 ta maqolalar chop etilgan.

Shu bilan bir qatorda, hududlarda joylashgan 122 ta tumandagi 456 ta korxonaning 75 turdagi mahsulotlarini dunyoning 24 ta mamlakatlariga eksport qilinishida amaliy yordamlar ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining 2022 yil 25 yanvardagi Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasining 00123-son yig'ilish bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining hududiy bo'linmalarida joylashtirgan holda doimiy faoliyat yurituvchi hududiy eksport shtablariga mas'ul xodimlar birlashtirilib, eksportyorlarning muammolari doimiy o'rganilishi yo'lga qo'yilgan.

Hududlardagi 908 ta yirik eksportchi va 4 875 dan ortiq yangi tashkil etilayotgan korxonalarni standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohalaridagi muammolari o'rganilib, muammolarni hal qilishga ko'maklashib kelinmoqda.